

Navoiyda Markaziy Osiyo lazer texnologiyalari akademiyasini tashkil etish rejalashtirilmogda

2023 yilning 16 noyabrida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yiliga bag'ishlangan "Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirishi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar" IV xalqaro anjumaniga start berildi. Ushbu keng qamrovli tadbirning tashkilotchilaridan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasidir.



Ushbu huquqdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ham xorijiy hamkorlarini anjumanga taklif etdi. Ular orasida Rossiya Federatsiyasidan kelgan mehmonlar - "Lazer texnika va texnologiyalari" Vyatka mashinasozlik korxonasi MChJ direktori Anatoliy Chirkov va "IRS LaserTech" kompaniyasining direktor o'rinbosari Anton Braslavskiylardir. Ular bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi Abdurazak Mirzayev va rais o'rinbosari Quvondiq Nurboyevlar muzokaralar o'tkazdilar.



Muzokaralar chog'ida Navoiyda Markaziy Osiyo lazer texnologiyalari akademiyasini tashkil etish istiqbollari muhokama qilindi. Bu ilgari muhokama qilingan hamkorlik chegaralarini ancha kengaytirishga imkon beradi. Dastlab

hamkorlik o'z ichiga tomonlarning innovatsion ishlanmalari, xususan, gibrid lazer texnologiyasidan foydalangan holda kon uskunalarini tiklash bo'yicha o'zaro ma'lumot almashishni o'z ichiga olgan bo'lsa, endi akademiya tog'-kon va metallurgiya ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun lazer texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish ustida ish olib borishi ko'zda tutildi. Xususan, kesish asboblarini mustahkamlash, agressiv muhitda ishlaydigan asbob qismlarining yuzalarida salbiy texnologik irsiyat omilini bartaraf etish (bu ularning ostidagi bo'yoq qatlami ostida korroziya shakllanishiga to'sqinlik qiladi) va boshqa maqsadlar uchun.



Bundan tashqari, tibbiyot va qishloq xo'jaligi sohasidagi muammolarni yechish uchun lazer texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, yuqori malakali profilli mutaxassislarni tayyorlash akademiyaning muhim vazifasi etib belgillanishi rejalashtirilgan.

Ushbu takliflar anjuman ishtirokchilariga Anatoliy Chirkov tomonidan yalpi majlisda o'z ma'ruzasida e'lon qilindi. Rossiyadan kelgan mehmonlar Navoiy mashinasozlik zavodi mutaxassislariga ham o'z ishlanmalarini taqdim etishdilar.



Uchrashuv yakunida Fanlar Akademiyasi Navoiy bo‘limi “Lazer texnika va texnologiyalari” Vyatka mashinasozlik korxonasi MChJ va “IRS LaserTech” kompaniyasi bilan hamkorlik to‘g‘risidagi memorandumlarni imzoladi.

Anjuman ikki kun davom etadi.

FA Navoiy bo‘limi matbuot xizmati.